

## FARG'ONA SHAHRIDA REKREATSION MASKANLARNI BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Jo'raboyev Asilbek Tolibjon o'g'li**

(Fag'ona politexnika institute tayanch doktoranti, O'zbekiston, asjura10@gmail.com )

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279144>

**ANOTATSIYA:** Ushbu maqolada Farg'ona shahridagi rekreatsion maskanlar hamda umumiy shaharsozlik qoidalari va dam olish maskanlarining funktsional foydalanish va tabiiy sharoitlar bo'yicha tahlili qilingan hamda tavsiyalar berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Rekreatsion maskanlari, Takomillashtirish tamoyillari, Istirohat bog'lari.


### KIRISH

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlanish jarayonlari ko'zga tashlanmoqda. Xususan, Arxitektura va qurilish sohasi bu borada jonbozlik ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda barcha joylarda bu sohada katta amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Respublikamizning Sharqiy qismida joylashgan Farg'ona shahri ham bu jarayonlardan orqada qolayotgani yo'q. Prezidentimiz 2011 yili Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida shaharni yanada obod etish yuzasidan taklif va tavsiyalarini berdi. 2011-yil 15-noyabrda davlatimiz rahbarining "Farg'ona shahrining bosh rejasini amalga oshirish, 2012-2015-yillarda ijtimoiy va transport-kommunal infratuzilmasi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga muvofiq shahar o'z qiyofasini keskin o'zgartirdi. Shahar aholisining dam olishi uchun rekreatsion hududlar tashkil etilmoqda.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Farg'ona shahridagi dam olish maskanlarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo rekreatsion hudud atamasiga izoh berib o'tsak:

**Rekreatsion hudud**- dam olish va sog'liqni tiklash uchun mo'ljallangan shaharda, shahar atrofida maxsus ajratilgan hudud ( bog'lar, ko'ngilochochish bog'lari, xiyobonlar hamda bog'li yodgorliklardagi buffer zonalar rekreatsion maqsadlar uchun xizmat qilishi mumkin. Rekreatsion hududlarni joylashtirishda tabiiy- iqlimiy sharoitlarga katta ahamiyat berish, shundan kelib chiqib mos joyni tanlay bilish lozim.



1- rasm. Farg'ona viloyati havo namligi sharoitlarini baholash

Shahar bosh rejasini ishlab chiqishda hudud landshafti, aholi joylashuvi kabi muhim omillar alohida e'tiborga olingan, - deydi Farg'ona shahar bosh me'mori Shavkat Malikov. - Bunyodkorlik ishlaridan so'ng shahrimiz shaharsozlikning zamonaviy va milliy an'analarini o'zida mujassam etgan betakror madaniy markazga aylanadi. Shaharning bosh rejasiga muvofiq 2012-2015-yillar mobaynida 1,3 trillion so'mlikdan ziyod bunyodkorlik va obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Shahar avtomobil yo'llari tizimini tubdan takomillashtirish belgilangan. Shu asosda o'tgan davrda Aeroport, Oqariq, Nozim Hikmat, Bahor, Nurafshon, Temir yo'l ko'chalarida katta hajmda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. Ular bo'yida zamonaviy turar-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish inshootlari qad rostlamoqda. 94 ta ko'p qavatli turar-joy binosining tashqi tomoniga sayqal berildi. Shuningdek, yangi qurib bitkazilgan uzunligi 14,4 kilometr, eni 40 metrlik 6 tasmali kichik halqa yo'li shahar husniga yanada ko'rkamlik baxsh etdi. Yangi kommunikatsiya tarmoqlari, gulzorlar, bolalar maydonchalari foydalanishga topshiriladi. Ahmad Farg'oniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ini rekonstruksiya qilish asnosida Bobur va Ahmad Farg'oniy ko'chalari oralig'ida so'lim xiyobon barpo etilishi, Navoiy va Oqariq ko'chalari tutashgan manzilda esa dam olish maskani hamda musiqiy favvoralar ishga tushirilishi rejalashtirilgan.



2-rasm. Farg'ona tumani Shohimardon turizm qishlog'i

Yirik shaharlarda rekreatsion hududlarni tashkil etishda Farg'ona shahrining tabiiy- iqlimiy sharoitidan unumli foydalanish va shahar rekreatsion hududlarini takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqishda landshaft arxitekturasini imkoniyat darajasidan to'la foydalanilgan amaliyotga tatbiq etish, landshaft arxitekturasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.



3-rasm. Rekreatsion maskanlar tashkil etishga qulay hududlar

### **XULOSALAR**

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, agarda biz Farg'ona shahrining tabiiy-iqlimiy va geografik joylashuvidan unumli foydalana olsak, aholining dam olishga bo'lgan ehtiyojini ta'minlay oladigan zamonaviy rekreatsion hududlarni tashkil etishimiz mumkin. Ushbu loyihani amaliyotga tatbiq etish uchun mavjud holat va kamchiliklarni o'rganib, chet- el tajribalaridan andoza olgan holatda, uni o'zimizning zamonaviy va milliy arxitekturamizga uyg'un holda shakllantirish lozim. Shuningdek, dam olish joylari dam olish uylari, internatlar, sanatoriylar, lagerlar, lager joylari, bolalar lagerlari hududlaridan boshqa hech narsa yo'q; Yashil ekinzorlarga mansub hududlarning yashil hududlari; Park va o'rmon, park zonalarini ham inobatga olish darkor.

### **References:**

1. Салимов Ориф Муслимович, & Журабоев Асилбек Толибжонович (2018). Роль рекреационных зон в городской структуре (на примере города Ферганы). Проблемы современной науки и образования, (12 (132)), 107-110.
2. Juraboyev, Asilbek Tolibjon Ugli Juraboyev, Toshpulatova, Barchinoy Ravshanovna, & Nurmatov, Doniyor Olimjon Ugli Nurmatov (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF COMPOSITIONAL METHODS IN LANDSCAPE ARCHITECTURE. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (3), 74-80. doi: 10.5281/zenodo.6503622
3. Toshpulatova, Barchinoy Ravshanovna, Nurmatov, Doniyor Olimjon Ugli, & Juraboyev, Asilbek Tolibjon Ugli (2022). TARIXIY SHAHARLARNI QAYTA QURISH VA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (3), 81-87. doi: 10.5281/zenodo.6503641
4. Nurmatov, Doniyor Olimjon Ugli, Juraboyev, Asilbek Tolibjon Ugli, & Toshpulatova, Barchinoy Ravshanovna (2022). ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK NAZARIYASIDA TRANSPORT VA UNING LANDSHAFTINI RIVOJLANISHINI DOLZARB VAZIFALARI VA HUSUSIYATLARI. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (2), 98-106. doi: 10.5281/zenodo.6470641



5. Zikirov, Muhammadsolih Solievich, & Zhuraboev, Asilbek Tolibzhonovich (2022). СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ АРХИТЕКТУРНОГО ПЛАНИРОВАНИЯ ЗАСТРОЙКИ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (10), 43-49.
6. Jo'Raboyev, A. T. O. G. (2022). PRINCIPLES OF ORGANIZING RECREATION SPACES IN THE MOUNTAIN REGIONS OF UZBEKISTAN. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(12), 248-253.
7. Salimov, A., Xotamov, A., Juraboyev, A., & Muminova, N. (2023). Architectural planning solutions of recreational facilities in mountainous areas. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 06028). EDP Sciences.
8. Tolibjon o'g, J. R. A. (2023). PRINCIPLES OF CREATING RECREATIONAL FACILITIES IN MOUNTAINOUS AREAS. Conferencea, 52-58.
9. Tolibjon o'g, J. R. A. (2023, November). THEORETICAL FOUNDATIONS OF CREATING RECREATIONAL FACILITIES IN THE MOUNTAINOUS REGIONS OF FERGANA REGION. In E Conference Zone (pp. 44-48).



INNOVATIVE  
ACADEMY